

YAYOI KUSAMA IJODIGA KREATIV YONDASHUV



Sevara Dusmuratovna Jumayeva
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik
va dizayn instituti
“San’at tarixi va nazariyasi”
kafedrasi o’qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-I6-10>

Annotatsiya: Maqolada globallashtirish davridagi bugungi zamonaviy axborotlar asrida medajurnalistikada tasviriy san’at asarlarining yoritilishi, ularga zamonaviy va kreativ yondashuv masalalari Yaponiyalik mashhur va kreativ asarlari bilan tanilgan ijodkor Yayoi Kusama ijod namunalari misolida muhokama etiladi.

Kalit soʻzlar: media, kreativlik, tasviriy san’at, ijodiy yondashuv, ruhiy holat, san’at namunalari,

Kirish: Bugungi tezkor axborotlar almashinuvi davrida media olami zalvorli ahamiyat kasb etmoqda. Axborotlar xilma xilligi, dunyo maydonida axborot to’qnashuvlari va ularning talqini, auditoriyaning axborot olishga va ularni qabul qilishga nisbatan o’sib borayotgan talabi mediajurnalistikaning asosini tashkil etmoqda. Siyosiy-ijtimoiy, maishiy sohalaridan boxabarlik auditoriyani doimo qiziqtirib kelgan, Lekin, shunday bir soha borki, uning yoritilishidan auditoriya doimo zavq oladi. San’at! Bu insonlarni hayratga soladigan tajribalar samarasi. O’z sohasining yetuk ijodkorlari tomonidan yaratilgan shedevr asarlar. Umuman, butun insoniyat undan bahramand bo’lganda, ongu shuuri ila anglab yetadigan haqiqati va bir olam zavqi ila ifoda etiladigan hayratdir. Tabiiyki, san’at asarlarini kreativ yondashuv asosida jamoatchilikka taqdim etishda uning media olamida yoritilishi jurnalistdan mahorat va ijodkorlik talab etadi. Bugungi axborot muhitiga nisbatan yangi “kreativlik” tushunchasi qo’llanila boshlaganiga ko’p vaqt bo’lgani yo’q. Xar sohaga ijodkorlik nuqtai nazaridan qaralsa, natija samarali bo’ladi. Shu o’rinda kreativlik tushunchasining ta’riflari bilan tanishib o’tsak.



psixologiya va pedagogika lug’atlariga asoslanib o’qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi, sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta’riflash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma’lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelni yaratishga javob beradi. Kreativlik darslarida pedagoglardan ajoyib g’oyalarni o’ylab topish (o’ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g’oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog’liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko’nikmalar bir-biri bilan kesishadi. Xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning, ayniqsa, o’qituvchining kreativligi boshqalarni ijodiy jarayonini tashkil etishga ruhlantiradi. Darxaqiqat, kreativlik xar sohada, ayniqsa, tasviriy san’atda juda muhim omillrdandir. Agar biz, zamonaviy ijod namunalari e’tibor beradigan bo’lsak, ulardagi yorqin ma’noni, ijodiy potensialni keng ekanligini ko’ramiz. Xususan, Yaponiyalik rassom Yayoi




Kusama ijodi bir necha uslublarni jamlay olgani bilan ahamiyatlidir. 95 yoshli ijodkorning asarlarida feminizm, minimalizm, syurrealizm, pop-Art va abstrakt ekspresionizm xususiyatlari mavjud bo'lib, ular avtobiografik, psixologik mazmun bilan boyitilgan. Kusama shuningdek, yozuvchi va shoir sifatida xam faoliyat olib borib, kino va liboslar dizaynida xam taniqli asarlar yaratgan. 2008 yil 12 noyabrda Kristis auksionida uning asari 5 100 000 dollarga sotiladi. Uning ijodida

IX asr postimpressionizm yo'nalishida ijod qilgan rassom Vinsent van Gog ijodining elementlari asosiy uslub sifatida uchraydi.

Ruhiyatidagi o'zgarishlardan aziyat chekadigan Kusamaning quyidagi asariga e'tibor berilsa, unda qizil doiralar misolida rassom, tom ma'noda, hayotga bo'lgan yashash hissini qaynoq rangda aks ettirgan bo'lsa ajab emas. Noodatiy figuralar ichra namoyon bo'lgani ichki hissiyotlarining aksi sifatida ko'riladi. Ijodkor san'at umr davomiyligida muhim ahamiyatga ega ekanligiga ishonadi.

Kusamaning fikriga ko'ra, san'at, birinchi navbatda, boshqalarni zavqlantirishi, xursand qilishi va tashvishlarni ajoyib "cheksizlik maydonlari"ga aylantirishi kerak. Tasviriy san'at turlari o'z xususiyatlariga qarab real borlikni obyektiv mavjud sifatleri — hajm, rang, fazo, shuningdek, predmetning moddiy shakli va nurhavo muhiti, harakat va o'zgarishlari hissini yaratadi, bunda tasvirning hissiy konkretligidan illyuzionizmga o'tish mumkin. Tasviriy san'at faqat ko'rish mumkin bo'lgan narsalarnigina tasvirlab qolmay, balki asarlarida hodisalarning vaqtinchalik rivoji, uning u yoki bu qismi (fabula), erkin hikoyanavislik, dinamik harakatlarni ham aks ettirib, dunyoni g'oyaviy o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tasviriy san'at insonning ruhiy qiyofasini, uning o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarini, tasviriy holatning psixologik va emotsional mazmunini ham yoritadi. Ba'zan mavjud bo'lmagan, rassom tasavvurining mahsuli



bo'lgan obrazlarni ham yuzaga keltiradi. Insoniyat tarixidagi turli davrlarni aks ettiradi. Davrning faqat hissiy holatigina emas, balki uning g'oyaviy mohiyati, siyosiy, falsafiy, estetik va etik g'oyalari ham tasviriy san'atning mazmuniga aylanadi. Tasviriy san'at obrazlarining ko'rgazmaliligi rassomga hayotning muayyan hodisasiga o'z munosabatini yuksak darajada ifodalashga imkon beradi; shu tufayli hayotni bilishning faol shakli sifatida jamiyatning ijtimoiy

hayotida, ma'lum tizimning ommaviy ongini qaror topishida muhim rol o'ynaydi. Olamni bilishning shakllaridan biri sifatida ijtimoiy ongni shakllantiradi hamda xalq orzu-umidlarini ifodalash shakli sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda umumg'oyaviy kurashlarning bir bo'laki sifatida namoyon bo'ladi.

Ijodkorning ushbu asarida xam aynan yuqorida aytilgan ichki kechinmalarini yuqori professionalism bilan ifodalab, o'zi xam mana shu dunyo, jamiyat, kechinmasining ajralmas qismi ekanligini ifodalaydi. Kusamaning ruhiy tug'yonlarini san'at orqali yuksak mahorat ila aks ettirishi tahsinga loyiq. Ijodkorni "No'xotlar malikasi" deb atashadi. Sabababi, Kusama ijodining markazida turli ranglarda ifoda etiladigan dumaloq figuralar turadi. E'tiborli tomoni, u yaratgan san'at namunalarini oldida ranglar uyg'unligini aks ettirgan libosda suratga tushishga odatlangan.

Kusama gullarsiz abadiyat mavjud emasligini ushbu asarida yorqin va o'zgacha uslubda ifoda etganini ko'rish mumkin. Shu o'rinda uning aynan gullar bilan bog'liq quyidagi fikrlarini keltirish

o‘rinli : -"Bir kuni dasturxondagi qizil gullar naqshiga qarab, men yuqoriga qaradim. Shunda shift, derazalar bir xil qizil gul naqshlari bilan bo‘yalganini ko‘rdim. Men butun xonani, butun vujudimni va butun koinotni qizil gullar bilan qoplanganini ko‘rdim. Bu illyuziya emas, balki haqiqatning o‘zi edi." Xulosa qilib, aytganda, San’at cheksizlikdir, San’at hayolot, kechinmalar olamining natijasidir. Xar qanday go‘zallik va nafosatni his etmoq uchun san’at doim muhim omil sanaladi. Usiz hayot va hayolot olamini tasavvur va tadbiiq etish imkonsizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.D.Jumayeva. Bo‘lajak haykaltaroshlarda ingliz tili darslarida kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi. O‘Zmu xabarlar. 2024.1.3.1. 111-bet.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tasviriy_san'at.
3. <https://www.interior.ru/art/8922-yai-kusama-bolishe-chem-iskusstvo.html>